

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJTIMOY MAS’ULIYATINI SHAKLLANTIRISHDA
VIRTUAL TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI****Kalmuratov Islambek Polatovich** – *assistent o‘qituvchi*kalmuratov1205@gmail.com*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***ЗНАЧЕНИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ
СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ****Калмуратов Исламбек Полатович** – *ассистент преподаватель**Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***THE IMPORTANCE OF VIRTUAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION
OF SOCIAL RESPONSIBILITY OF FUTURE TEACHERS****Kalmuratov Islambek Polatovich** – *assistant teacher**Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Tayanch so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, ijtimoiy javobgarlik, virtual texnologiyalar, virtual ta‘lim muhiti, raqamli pedagogika, pedagogik kompetentlik, ijtimoiy kompetensiya, refleksiv faoliyat, masofaviy ta‘lim, raqamli madaniyat, pedagogik mas‘uliyat, kiber ijtimoiylashuv.

Rezyume. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy javobgarligini virtual texnologiyalar vositasida shakllantirish masalasi yoritilgan. Virtual ta‘lim muhiti, raqamli platformalar va interaktiv vositalarning pedagogik mas‘uliyat, ijtimoiy faollik hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida virtual texnologiyalar bo‘lajak pedagoglarda mustaqillik, refleksiya va raqamli madaniyatni shakllantirishning samarali vositasi ekanligi asoslangan.

Ключевые слова: будущий учитель, социальная ответственность, виртуальные технологии, виртуальная образовательная среда, цифровая педагогика, педагогическая компетентность, социальная компетенция, рефлексивная деятельность, дистанционное обучение, цифровая культура, педагогическая ответственность, киберсоциализация.

Резюме. В данной статье рассматривается вопрос формирования социальной ответственности будущих учителей с помощью виртуальных технологий. Анализируется роль виртуальной образовательной среды, цифровых платформ и интерактивных инструментов в развитии педагогической ответственности, социальной активности и профессиональной компетентности. По результатам исследования обосновывается, что виртуальные технологии являются эффективным инструментом для формирования у будущих педагогов самостоятельности, рефлексии и цифровой культуры.

Key words: future teacher, social responsibility, virtual technologies, virtual educational environment, digital pedagogy, pedagogical competence, social competence, reflective practice, distance learning, digital culture, pedagogical responsibility, cybersocialization.

Summary. This article examines the formation of social responsibility in future teachers through the use of virtual technologies. It analyzes the role of the virtual educational environment, digital platforms, and interactive tools in developing pedagogical responsibility, social engagement, and professional competence. The research findings substantiate that virtual technologies are an effective tool for fostering independence, reflection, and digital literacy in future educators.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan, balki yuksak ijtimoiy javobgarlik ruhida ham tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatda muhim ijtimoiy rol o‘ynovchi shaxsdir. Pedagogning jamiyatdagi o‘rni beqiyos, u yosh avlodning dunyoqarashi, ma‘naviy qadriyatlari va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy subyekt hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik ta‘limda virtual texnologiyalar, raqamli platformalar, masofaviy ta‘lim tizimlari, interaktiv muhitlar hamda virtual ta‘lim resurslaridan foydalanish jarayoni tobora kengayib bormoqda. Virtual ta‘lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, kommunikativ faolligi, ijtimoiy refleksiyasi hamda mas‘uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Virtual ta‘limning

afzalliklari sifatida interaktivlik, moslashuvchanlik, uzluksizlik va individual ta‘lim trayektoriyasini yaratish imkoniyatlari alohida ta‘kidlanadi [1].

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy javobgarligini virtual texnologiyalar vositasida shakllantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Yakubova tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari, ularning kasbiy tayyorgarligi va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat ekanligi ko‘rsatilgan [2].

A.A.Suvonqulova va B.X.Raximovlar tadqiqotida virtual texnologiyalar vositasida pedagogik mahoratni rivojlantirish, virtual ta'lim muhitining metodik imkoniyatlari hamda virtual ta'limning samaradorligi asoslab berilgan. Mualliflarning fikricha, virtual ta'lim pedagogik jarayon samaradorligini oshirish bilan birga bo'lajak pedagoglarda kasbiy mas'uliyat va ijtimoiy faollikni ham shakllantiradi [3].

R.Z.Po'latovning kiber ijtimoiylashuvga oid tadqiqotlarida esa raqamli muhitning bo'lajak pedagoglarning kasbiy pozitsiyasi, axloqiy mas'uliyati va ijtimoiy identifikatsiyasiga ta'siri alohida yoritilgan. Raqamli makonda faoliyat yuritish pedagogdan yangi turdagi javobgarlikni, ya'ni axborot madaniyati, raqamli etika va ijtimoiy xavfsizlik kompetensiyalarini talab qiladi [4].

Mazkur maqolada nazariy-metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va refleksiv yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, umumlashtirish hamda konseptual modellashtrish usullari qo'llanildi.

Natijalar. Tahlillar natijasida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy javobgarligini shakllantirishda virtual texnologiyalar quyidagi pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, virtual ta'lim muhiti talabalarning mustaqil qaror qabul qilish faoliyatini kuchaytiradi. LMS platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari va virtual seminarlar orqali talaba o'z faoliyatini rejalashtirish, vaqtni boshqarish hamda natija uchun javobgarlikni his qilishga o'rganadi [3].

Ikkinchidan, interaktiv platformalar ijtimoiy muloqotni kuchaytiradi. Forumlar, onlayn muhokamalar, guruhli loyihalar va virtual debatlar talabalarda hamkorlik madaniyati, fikr almashish va ijtimoiy pozitsiyani himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [5].

Uchinchidan, virtual texnologiyalar reflektiv faoliyatni rag'batlantiradi. Elektron portfoliolar, reflektiv kundaliklar va onlayn baholash tizimlari orqali talaba o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilishga va o'z ustida ishlashga odatlanadi.

To'rtinchidan, raqamli muhit pedagogik etika va raqamli madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyatda ijtimoiy mas'uliyatning mustahkam asosini yaratadi [4].

Muhokama. Ijtimoiy mas'uliyat – bu shaxsning jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini anglab yetishi hamda ularni ongli ravishda bajarishga tayyorligidir. Bo'lajak o'qituvchida ushbu sifatning shakllanishi uning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy pedagogik tayyorgarlik tizimida ijtimoiy javobgarlik ko'proq nazariy tushuncha sifatida o'rgatilgan bo'lsa, virtual texnologiyalar ushbu sifatni amaliy faoliyatga aylantirish imkonini beradi. Talaba real vaqt rejimida muammoli vaziyatlarga duch keladi, mustaqil qaror qabul qiladi va natijalar uchun javob beradi.

Virtual ta'limning afzalliklari sifatida qulaylik, vaqt tejallishi, geografik mustaqillik va ta'limning individuallashuvi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, noto'g'ri foydalanish holatlarida passivlik, nazoratning susayishi va yuzaki ishtirok xavfi ham mavjud. Shu sababli virtual texnologiyalarni ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik mexanizmlar asosida tashkil etish zarur [6].

Demak, virtual texnologiyalar shunchaki texnik vosita emas, balki pedagogik ijtimoiylashuvning samarali instrumenti sifatida qaralishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy javobgarligini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda virtual texnologiyalar samarali pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyatga ega.

Virtual ta'lim muhiti talabalarda mustaqillik, refleksiya, kommunikativ faollik, ijtimoiy hamkorlik va raqamli madaniyatni rivojlantirish orqali ijtimoiy javobgarlik sifatlarini shakllantiradi. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyatda mas'uliyatli, tashabbuskor va ijtimoiy faol o'qituvchini tayyorlashga xizmat qiladi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida virtual texnologiyalar asosida ijtimoiy javobgarlikni rivojlantirishning ilmiy-metodik modelini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarida uzviy ravishda olib borilishi lozim. Bu borada, virtual texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy javobgarligini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy raqamli vositalarni kompleks qo'llash talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Raximov B.X., Suvonqulova A.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda pedagogik mahoratini virtual texnologiyalar vositasida rivojlantirishda xorij tajribasi. // *Pedagogs International Research Journal*, №1, 2024. – P. 55-61.
2. Yakubova U.Sh. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. *Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent: 2025.
3. Suvonqulova A.A., Raximov B.X. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida pedagogik mahoratni rivojlantirish masalalari. // *Pedagogs International Research Journal*, №1, 2024. – P. 55-61.
4. Po'latov R.Z. Bo'lajak o'qituvchilarda kiber ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mexanizmini rivojlantirish yo'llari. // *Science and Education Scientific Journal*, №3, 2024. – P. 214-220.
5. Hamidova Barno Maxmudovna. Boshlang'ich sinf bo'lajak o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish. // *Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari*. – Jizzax, 2022. 391-392-b.
6. Yakubova U.Sh. O'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi. // *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal*, №4, 2024. 69-74-b.